



BAXMAL TUMANIDA ANIQLANGAN EPITAFIYA YODGORLIKLARI XUSUSIDA

Ibragimov Oybek Norboy o'g'li

Ijtimoiy fanlar instituti ISFI magistranti

email: jekdespp38@gmail.com.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20535604>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 11-may 2026 yil

Ma'qullandi: 15-may 2026 yil

Nashr qilindi: 31-may 2026 yil

KEY WORDS

Baxmal tumani, epitafiya, qabrtosh, arab yozuvi, suls xati, nasx xati, nasta'liq, arxeologik yodgorlik, buloq suvlari, Temuriylar davri.

ABSTRACT

Mazkur maqolada Jizzax viloyati Baxmal tumani hududida aniqlangan epitafiya yodgorliklari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

qabrtoshlardagi yozuv uslublari — suls, nasx va nasta'liq xatlarining xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Yodgorliklarning tarixiy davrlanishi, ulardagi yozuvlar orqali shaxslarning aniqlanishi hamda mahalliy aholi orasida saqlanib kelayotgan og'zaki ma'lumotlar asosida ushbu hududning madaniy-tarixiy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot jarayonida qabrtoshlar joylashgan muhit, tabiiy-geografik sharoit, buloq suvlarining tarkibi hamda ularning aholi turmushidagi o'rni yoritilgan.

Kirish

Baxmal tumani Jizzax viloyatining janubiy-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, tabiiy geografik joylashuvi, relyefi, iqlimi, tabiiy resurslari, infratuzilmasining rivojlanishi va ekologik holatiga ko'ra viloyatdagi muhim tumanlardan biri hisoblanadi. Tumanda ko'pgina qabr yodgorliklar mavjud bo'lib, ulardan bir qismi bugungi kunda mahalliy aholi uchun o'z ajdodlaridan qolgan hisoblanadi. Bu maskanlar aksariyat hollarda xalq orasida shifo, baraka va madaniy qadriyat sifatida qadrlanadi. Tumandagi qabr toshlari haqida xalq orasida qadimdan rivoyat va afsonalar ko'p bo'lsa ham ularning tarixiy ildizlari har doim ham yozma manbalarda to'liq qayd etilmagan

Said Azimning "Baxmalnoma" va Shayx Parida Hamid og'a Burgutli. "Sangzor" kabi kitoblar yozib Baxmal haqida to'liq yoritilgan. Shunaqa kitoblar bo'lsada birortasida hali bu masala alohida tadqiqot mavzusi sifatida o'rganilmagan. Bu yangi hudud emas balki e'tibordan chetda turgan va hech qanday tarixchi habar topmasdan qolib kelayotgan hududlardan biri edi.

Metodologiya

Maqolani yozishda xolislik, haqqoniylik, ilmiylik, tizimlilik, tarixiylik va dala tadqiqotlari usullaridan foydalanilgan. Bu epitafik yodgorlikni taqqoslash boshqa huddi shunday o'rganilgan toshlar singari o'rganish ishlari olib borilgan. Bunda taqixiy, tilshunoslik, arxeologik, dala tadqiqoti va ilmiy maslahatlar bilan birgalikda ishlagan holda tadqiqot qilindi. Bunda boshqa huddi shunday tadqiqot qilgan insonlardan o'rnak olgan holda ish yuritish va ilmiy holatni yoritildi.

Results (Natijalar)

Baxmal-tuman hududida bir qancha qadimiy ziyoratgohlar mavjud bo'lib, ular orasida haligacha alohida o'rganish ob'ekti sifatida tadqiq etilmaganlari ham uchraydi. Xususan, buloq suvi shifobaxsh hisoblanadi. Ko'pchilik tashrif buyuruvchilar buloq suvidan iste'mol qilish maqsadida kelishadi.

Mazkur tabiiy sharoit bu yerlarda qadimdan aholi istiqomat qilishi uchun zamin yaratgan. Qadimdan aholi soy havzalarini o'zlashtirib, suv resurslarining hajmiga qarab konsentratsiyalashgan. Yirik soy havzalarida yirik qishloq yoki kichikroq shaharchalar, kichikroq soy havzalarida kichik qishloqlar hosil bo'lgan.¹

Ushbu epitafiya yodgorlik biri Baxmal tumani Qatortol MFY hududida joylashgan. Bu yerning tabiiy reliefi qir-adir hududlari bo'lib, adirlar orasida boshlangan buloqlar ko'plab uchraydi. Shu buloqlardan biri bo'lgan Qirqquloq bulog'i yonida arxeologik yodgorlik joylashgan. Yodgorlikning ba'zi joylariga qabrlar qo'yilgan. Mana shu qabrlar orasidan uchta qabr tepasiga esdalik marmar toshlar qo'yilgan. Toshlariga arab grafikasida matn tushirilgan. XV asrda qabrtoshlarida asosan quyidagi yozuv uslublari qo'llanilgan:

1. Suls xati. "Suls" so'zi arabcha "uchdan bir" (*thuluth*) degan ma'noni bildiradi. Bunda harflarning uchdan bir qismi egri shaklda yozilishi, yoki qalam uchining uchdan bir qismi bilan yozilishi bilan bog'liq deb izohlanadi. Bu yozuvdan odatda me'moriy qurilmalarda, epitafiyalarda va bezakli shakllar hosil qilishda foydalaniladi.

2. Nasx xati, (arabcha: *naskh*) so'zining lug'aviy ma'nosi "ko'chirish", "nusxa olish", "qayta yozish" degan ma'nolarni anglatadi. Bu yozuvdan odatda kitoblar va qo'lyozmalarni ko'chirish uchun qulay bo'lgani sababli shunday nom olgan. Unda harflar aniq va tartibli yoziladi, shuning uchun matnni ko'paytirishda juda qulay bo'lgan.

3. Nasta'liq xati. Nastaliq xati — fors-arab kalligrafiyasidagi juda mashhur va badiiy yozuv uslublardan biri bo'lib, u nasx va ta'liq yozuv uslublarning qo'shilishi asosida shakllangan. Bunda nasx – arab yozuvining sodda va aniq uslubi, ta'liq – osilib turgan, egri chiziqli fors yozuv uslubi. Shu ikki yozuvning xususiyatlari birlashgani uchun "*nasx + ta'liq = nastaliq*" deb atalgan. Harflar egri va yumshoq shaklda yoziladi, yozuv biroz pastga og'ib tushadi, juda badiiy va nafis ko'rinishga ega, she'riy matnlar uchun juda mos hisoblanadi. XV asrda ayniqsa Mir Ali Tabrizi tomonidan mukammallashtirilgan, Temuriylar davrida (XV asr) keng tarqalgan, Ba'zi hududlarda qabrtoshlarda ham qo'llanilgan.²

Qarshi vohasi epitafik yodgorliklarini tadqiq qilgan Sh. Shonazarovning bergan ma'lumotlariga ko'ra, qabrtosh yozuvlari asosan uch turdagi – arab, fors va turkiy tillarda yozilgan.³

Mana shu o'rinda Sh. Shonazarovning epitafik bo'yicha toshlarni tadqiq qilish bo'yicha shu holatlarni ko'rib o'tsak bo'ladi.

Bizning bu yangi toshlarni tarjima qilishda va ilmiy maslahat berishda Jo'rayev Ziyovuddin domla tomonidan yordam beriladi. Toshni tadqiq qilishda bir necha arxeologiklar tomonidan maslahati bilan ish olib bordik. Atrof muhitni hisobga olgan holda bu yerga aynan uzoq joydan marmar va granit toshdan olib kelingan, chunki bunday toshlar har qanday ob -havoda ham o'z xususiyatni yo'qotmasdan qoladi. Mana shuning uchun ham VI-VII asr o'tsa ham hech qanday xususiyatni o'zgartmasdan qolmoqda.

Birinchi guruhga ta'luqli bo'lgan toshda Yusuf ibn Ibrohim hijriy 956-yil (1549-yil)da vafot etilgani keltirilgan (1-ilova).

Ikkinchi guruhga oid toshda Bibicha xotun hijriy 816-yil (1413-yil)da vafot etgan va qolgan toshlarda hali hech qanday ism ochiqlanmadi, qolgan ma'lumotlarni to'liqligicha

¹ A.Toshkenboyev O'. Nosirov "Jizzax viloyati. Jizak oblast.Djizakskaya oblast" Toshkent "O'zbekiston" 1996. 18-bet

² <https://legacy.uz/en/architectural-epigraphy-of-uzbekistan/>

³ Сулейманов Р.Х., Бабаджанов Б.М., Шоназаров Ш.Б. Находки надгробных эпитафий при благоустройстве средневекового некрополя Абу Убайдаллах ал-Джаррах в Карши // Археология Узбекистана. 2016. № 2 (13). – Самарканд. 2016. –С. 43-50

o'rganilmoqda . Bu yerda yana bir kichi toshda ham berilgan inson bor bu inson 100-120 yil oldin dafin etilgani tahmin qilinmoqda (2-3-ilova).

Uchinchi guruhga doir toshda odamlar uzoq davrdan beri Keli (Hovoncha – Urib yanchish, tuyish uchun ishlatiladigan, yog'och yoki metallardan yasalgan maxsus idish; kelicha, o'g'ircha) sifatida foydalanib kelmoqda. Bunday omma tarafidan keng ishlatilgan joylardan biri bo'lib qolgan va toshdan hamma foydalanilgan. (4-ilova)

To'rtinchi xildagi toshni ustki qismini ko'rsak odamlar tomonidan sig'ingalik alomatlari ko'rinib turibdi, maxsus ataydan ustini o'yib olavergan. (5-ilova). Mazkur toshlar hozirgi kungacha o'rganilmagan toshlar hisoblanadi. Bularni xalq orasida yuradigan eshon tomonidan o'qib ko'rishga uringan. Bu ishlar sovet davrida Samarqanlik Usmon Ali eshon tomonidan ham ozgincha o'qiganligini mahalliy odamlar tomonidan aytiladi. Shu bilan birga ushbu toshlar joylashgan hududga oid ma'lumotlarga ko'ra (xalq og'zaki tarixidan) Kampirdevor yo'li tog'dan Buxoragacha ketganligini aytib o'tadi. Shu yo'ldan dam olish uchun Temuriylar davridan keyingi davrlarda ham o'ziga hos bo'lgani va ko'plab xonlar shu joylarga kelib orom olib ketishgan. Bir joyda bunday epitafik xarakterga ega toshlarning mavjudligi va bu maskanlardan azaldan hukmdorlaning dam olish joylaridan bo'lganligi haqiqatga yaqin. Shuni e'tiborga olish kerakki bu manzilgohlar suputnikdan qaralganda atrofida ko'plab (qo'rboshi) qalalar izlari qoldiqlar borligi aniqlandi. Bu manzil e'tiborga loyiq joylardan anglash qiyin emas va har doim ulug' insonlar tashrif buyurib turganligi ma'lum. Mazkur ma'lumotlar xalq og'zaki tarixi shaklida fuqaro Umorov Ibrohim (1939-yil tug'ilgan) otadan yozib olindi.

Yodgorlikni kuzatib uning hududidagi dastlabki qo'yilgan qabrlar temuriylar davriga oidligini aniqlandi va bu yerda atrofdagi ko'plab qabrlarga qaraganda qabrni ma'lum muddat foydalanganligi ko'rinmayapti. Yani turli xil davrlarga tegishli qabrlar ham bor. Mahalliy odamlar tomonidan bundan I asr oldin ham qabr sifatida foydalanilganini aytib o'tdi.

Xulosa

Yuqoridagilar asosida ta'kidlash kerakki ushbu Baxmal tumani hududida aniqlangan epitafiya yodgorliklari ilmiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularni tadqiq etish masalasida quyidagi xulosalar qilindi.

Birinchidan, Ushbu epitafiya yodgorlik sifatida bularni hozirgi kungacha hech kim tomonidan o'rganilmagan va shu holati bilan hozirgi kungach saqlanib kelmoqda. Bunday toshlarni Temuriylar davriga borishini bilib oldik , aynan bunda tosh oddiy odam uchun boy inson uchun qo'yilmagan. Xon yoki amir qarindoshiga qo'yilgani ma'lum bo'ldi.

Ikkinchidan, qadimiy yozuvlar asosan xon va xon qarindoshlariga shunday marmar toshlardan qo'yilganligi, ularni shu bilan oliy nasabdan kelib chiqanligini bildirish uchun qo'yilganligi aniqlangan.

Uchinchidan, mahalliy aholi tomonidan keli (mazmuni) toshdan foydalanilib kelingan va o'sha epigrafik tosh topilgan joyda atrofida juda ko'plab qalalar topilgan, bularni suputnik orqali yaqqol ko'rinib turadi. Aynan shu joyda tarixchilar uchun juda katta sir yotgan makondir bu hudud ustida ishlash uchun birdamlik va ko'p insonlarning mehnati kerak bo'ladi.

To'rtinchidan, epitafiyalardagi yozuvlar asosan Suls xati. Nasx xati, Nasta'liq xati. Shakllarida yozilgan bo'lib, ularni o'qish orqali tarixiy jihatdan muhim bo'lgan ijtimoiy va siyosiy ma'lumotlarni shakllantirish mumkin bo'ladi. Bu kabi toshlar yozuv turini ko'rib o'tdik aynan arab va fors yozuvlarnining uyg'unligi orqali ajoyib ko'rinishdagi epitafik yozuvlar paydo qilgani ko'rishimiz mumkin.

Biz bilgan va bilmagan narsalarimiz qanchadan qancha, biz tarixni yoritmoqchi bo'lgan narsalar qanchadan ancha, biz bilishni uringan narsalar cheksiz ekani bildiradi. Shuni takidlash joizki biz e'tiborsiz qoldirgan tarix va voqealik oldimizda bo'lsa ham bohobar qolib

ketmoqdamiz. Vaqt hech qachon hech kimni ayamas va bu hali ham o'z kuchini yo'qotgani yo'q.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Abdullayev, O. Geografiya asoslari. Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Islomov, M. O'zbekistonning tabiiy resurslari va ularning geosiyosiy ahamiyati. Toshkent, 2020.
3. A. Toshkenboyev O'. Nosirov "Jizzax viloyati. Jizak oblast. Djizakskaya oblast" Toshkent "O'zbekiston" 1996. 18-bet
4. <https://legacy.uz/en/architectural-epigraphy-of-uzbekistan/>.
5. Alibekov L.A. Inson va tabiat. Darslik. Samarqand: SamDU, 2020 y
6. Og'a Burgutli. Jizzax viloyati ziyoratgohlari. – T.: "Fan", 2008 y.
7. Р.Х. Сулейманов, Б.М. Бабаджанов, Ш.Б. Шоназаров НАХОДКИ НАДГРОБНЫХ ЭПИТАФИЙ ПРИ БЛАГОУСТРОЙСТВЕ СРЕДНЕВЕКОВОГО НЕКРОПОЛЯ АБУ УБАЙДАЛЛАХ АЛ-ДЖАРРАХ В КАРШИ © Археология Узбекистана. 2016. № 2 (13) Тошкент
8. Munis, Shermuhammad Avazbek o'g'li – (Savodi ta'lim 1804) "Munis. Tanlangan asarlar" — Toshkent nashri, 1980.

Plava 1





Ilova





Ilova





Ilova 4



Ilova 5



